

Qilichova Zuxro Jalilovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: SHohida Istamova Maqsudovna

Annotatsiya: *O'quvchilar lug'atini faollashtirish – ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi – o'quvchi lug'atidagi nafaol so'zlarni faol lug'at zaxirasiga o'tkazish uchun o'quvchiga nafaol so'zlarning birikuvchanligi va qo'llanish sohasini o'zlashtirishga yordam berishdan iborat. O'quvchi biror so'zni o'z qayta hikoya-lashi, hikoyasi, suhbat, xati, bayoni, inshosida atigi bir marta qo'llasa ham, bu so'z faollashgan hisoblanadi. So'zni o'zlashtirish uning ma'nosi, birikuvchaligi va qo'llanish doirasini bilishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *ko'rgazmali, kontekstual, sinonim keltirish, mantiqiy ta'rif berish, batafsil tavsiflash, antonim keltirish, so'zning yasaliş tarkibini tahlil qilish.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri so'z ustida ishlash, ya'ni lug'at ishidir. Ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishi o'quvchining so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyat-ga ega. M. R. Lvovning ma'lumot berishicha, IV sinfgacha boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan yangi so'zlarning yarmi o'quvchilar lug'atiga ana shu darslar orqali kiradi. "Lug'at ishi – o'qituvchi faoliyatidagi bir lavha emas, balki rus tili kursining barcha bo'limi bilan bog'langan tizimli, yaxshi tashkillashtiril-gan, pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tuzilgan ishdir" – deb yozgan edi taniqli metodikachi olim A. V. Tekuchev.

So'z - tilning asosiy birligi bo'lib, u orqali tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar nomlanadi. "So'z,- deyiladi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da,- o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, narsa-hodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng muhim til birligidir". Boshlang'ich sinflarda so'zning fikr ifodasida nutqda tutgan o'rnidan, gapda turli ma'no va vazifalarda qo'llanishidan kelib chiqqan holda so'z ma'nolarini tushuntirish usullari tanlanadi. O'qituvchi o'qish darslariga faol nutqqa kiritiladigan, ma'nosi tushuntiriladigan so'zlarning ma'nosini o'quvchilar bilan birga "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan topib, so'ng ayrim so'zlarning ma'nosini izohlashni uyga vazifa qilib bersa, jamoa bo'lib ma'noni izohlashga rag'bat uyg'otsa, mustaqil faoliyatga o'rgatish oson kechadi. "Amaliy fazilatlar, odatlar ikki turli yo'l bilan hosil qilinadi: birinchi yo'l – qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasbga-intilish harakatga aylantiriladi" - deb yozgan edi Forobiy. Tadqiqot mavzusi

yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov davrida soʻz maʼnosini tushuntirishda quyidagi usullardan foydalanish ijobiy samara berishi kuzatildi.

1. Soʻz ifodalagan narsa, belgi, harakatni koʻrsatish.

2. Predmet va uning belgisi-harakati ifodalangan rasmni koʻrsatish orqali ularni ogʻzaki va yozma tavsiflash, tasvirlash.

3. Soʻzni tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilish.

4. Sinonimlar tanlash.

5. Badiiy matnlar asosida soʻz maʼnolarini tushuntirish.

6. Antonimlar yordamida soʻz maʼnosini izohlash.

7. shakli bir xil soʻzlar maʼnosini soʻz birikmasi tarkibida izohlash.

Soʻz maʼnolarini tushuntirish usullari oʻquvchilarning bilim darajasiga, izohlanadigan soʻzning xususiyatiga qarab tanlanadi. Lugʻat ishi soʻz birikmasi, gap, yaʼni grammatik qurshov asosida tashkil etilsa, oʻquvchilar soʻzning maʼnosini oson oʻzlashtirib oladilar. Yangi oʻrganilgan soʻz, soʻz birikmasi tarkibida qanchalik koʻp qoʻllansa, oʻquvchilar uni shunchalik esda saqlab qoladilar, nutqda qoʻllashga qiynalmaydilar. Oʻqituvchi taʼlimning dastlabki kunlaridanoq oʻqilgan matn, gap tarkibida maʼnosi oʻquvchilarga tushunarsiz soʻzni topishga doir topshiriqlar berishi, izohlash usullaridan namunalar koʻrsatishi, izlanishlari uchun adabiyotlar tavsiya qilishi lozim. Soʻzga sinonim tanlash orqali soʻz maʼnosini izohlash quyidagicha topshiriqlar asosida tashkil qilinadi:

1) matndan sinonimlarni topib, maʼnosidagi farqni izohlash;

2) berilgan soʻzga sinonim topib, maʼnosidagi farqni aytish;

3) sinonimlarni qatnashtirib kichik matn yaratish;

4) sinonimlar guruhini tuzish.

5) berilgan sinonimlar guruhidan (*katta, gigant, buyuk, ulugʻ*) mavzuga doirini tanlash.

1-sinfda savol-javob usulida tasvirlash, tavsiflashga oʻrgatish orqali qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar ustida ishlanadi. Oʻquvchilarga soʻroq gap orqali gap namunasi beriladi. Masalan, Olma achchiq boʻladimi yoki shirin boʻladimi? Yoz issiqmi yoki sovuq?

3-4-sinflarda antonimlar ishtirokida gaplar tuzdirish yordamida oʻquvchilar nafaqat soʻz maʼnosini oʻzlashtiradi, balki uning qoʻllanish doirasini, qaysi soʻzlar bilan bogʻlana olishini va qaysi soʻzlar bilan bogʻlana olmasligini ham bilib oladi. Oʻquvchi maktabga kelgan birinchi kunlaridan maʼnosi tushunarsiz soʻzlarga duch keladi. Masalan: "Alifbe" darsligidagi "*omil, manbai, kamolot, murod, asil, toʻkinlik, masal, himmatli, himmat, idrok, iqbol, toʻkinlik, jasorat, jumboq, boʻtam, mashʼal, sabot, davron*" soʻzlarining maʼnosini oʻqituvchi izohlarisiz birinchi sinf oʻquvchilarining anglamoqlari mushkul. SHuning uchun soʻz maʼnosi ustida ishlash savod oʻrgatish davridan boshlanadi. Savod oʻrgatish darslarida oʻquvchi bilimlarni tayyor holda oʻzlashtiruvchiga aylanib qolmasligi, dars davomida qoʻllangan soʻzlarning maʼnosini bilish-bilmasligini oʻylab koʻrish, soʻz maʼnosiga eʼtibor berish koʻnikmasini

shakllantirish fikrni to‘liq ifoda etish uchun zamin yaratadi. Bu davrda so‘zlarning ma‘nosi bilan tanishtirish suhbat va tushuntirish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi suhbat jarayonida ma‘nosi tushunarsiz so‘zni so‘z birikmasi va gap ichida qo‘llab, rasmlar yoki narsa–predmetlarni namoyish qilish, turli xatti-harakatlar, o‘yinlar vositasida so‘zning ma‘nodoshini keltirish orqali izohlaydi. Ba‘zan o‘quvchi matndagi bir so‘zning ma‘nosinigina emas, balki ba‘zi so‘z birikmasining (*nurli iqbol; issiq quchog‘ing; kelajaging buyukdir; kanda qilmaydi; ilm cho‘qqisin; jur‘at ila, toqat bilan ado qilar; porloq kelajak*), gapning (*Do‘st bilan obod uying. Qor yog‘di – don yog‘di. Vatan – mening onamsan. Har so‘zida olam ma‘no. O‘qib topaman kamol.*), hatto yaxlit bir jumlaning ham ma‘nosini tushunmay qolishi mumkin.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘quvchilar so‘z turkumlari haqida elementar nazariy bilimlarni egallaydilar. Ularga ot, sifat, fe‘lning nimani bildirishi, qanday so‘roqlarga javob bo‘lishi, gapda qanday vazifada kelishini o‘rgatish orqali nutqda ulardan foydalanish ko‘nikmasi hosil qilinadi. Aks holda so‘z turkumlarini nazariy o‘rgatishning ahamiyati bo‘lmaydi. Fikr ifodalashda til birliklaridan to‘g‘ri foydalanish, fikrning aniq va ta‘sirchan bo‘lishiga erishish ko‘nikmasini hosil qilish til ta‘limining muhim jihatidir. O‘quvchilar lug‘atini boyitish so‘z ma‘nosini izohlash va ma‘nosini tushuntirish bilan osongina amalga oshadigan hodisa emas. Buning uchun lug‘at ustida ishlash usullari o‘quvchilarning izlanishlari asosida amalga oshirilishi, ma‘nosi izohlanadigan so‘zlarni nutqda qo‘llashga doir mashqlar bajartirilishi ko‘zda tutiladi.

1. **“Ortiqchasini top” o‘yini.** O‘quvchilar so‘z ichidan o‘zaro ma‘nodosh bo‘lmagan so‘zlarni topib aytadilar. “Ona tili” darsliklarida bunday matnlar ko‘p uchraydi.

2. **“O‘yla, izla, top” o‘yinida** berilgan matn ichidan ma‘nodosh so‘zlar toptiriladi, ularni guruhlab yozdiriladi va nima uchun ma‘nodosh ekani izohlanadi.

3. **“Ruchka stol ustida” o‘yinida** o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi har bir guruhga sinonimik qatordagi bosh so‘zni kartochkaga yozib uzatadi. Guruhdagi o‘quvchilar kartochkadagi so‘zga sinonim so‘zni yozib, qog‘ozni sherigiga uzatadi, ruchkasini stol o‘rtasiga qo‘yadi. Topolmagan o‘quvchi ruchkasini o‘zida olib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. *PEDAGOG*, 7(5), 670-676.
2. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(4), 40-46.
3. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(4), 54-60.

4. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. *PEDAGOG*, 7(4), 328-334.
5. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. *European research*, (3 (81)), 47-49.
6. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 918-924.
7. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 933-939.
8. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 882-887.
9. Akbarovna, I. S. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 888-893.
10. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 912-917.
11. Akbarovna, I. S. (2024). МАТЕМАТИК TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 900-905.
12. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 875-881.
13. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 860-866.
14. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 27-32).
15. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM MASALASI. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 21-26).